



SPECIFIC FEATURES OF THE AGRARIAN POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE TURKESTAN REGION

U.A. Usarov

Docent of the Department of "International Relations and History"

Alfraganus University

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Russian Empire, Central Asia, Turkestan region, agriculture, agrarian policy, land and water, land ownership, irrigation system, local population, cotton, industrial enterprise, metropolis, desyatina, pood.

Received: 09.02.25

Accepted: 11.02.25

Published: 13.02.25

Abstract: This article discusses the specific features of the agrarian policy of the Russian Empire in the Turkestan region in the second half of the 19th - early 20th centuries, the attitude of the imperial government to agrarian issues in the implementation of colonial policy in the country. At the same time, the article analyzes the state of agriculture in the Turkestan region and its indicators during the colonial period using various sources and scientific literature.

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON O'LKASIDAGI AGRAR SIYOSATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

U. A. Usarov

"Xalqaro munosabatlar va tarix" kafedrasi dotsenti

Alfraganus universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Rossiya imperiyasi, O'rta Osiyo, Turkiston o'lkasi, qishloq xo'jaligi, agrar siyosat, yer-suv, yer egaligi, sug'orish tizimi, mahalliy aholi, paxta, sanoat korxonasi, metropoliya, desyatina, pud.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asning ikkinchi yarmida – XX asr boshlaridagi Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasidagi agrar siyosatining o'ziga xos xususiyatlari, imperiya hukumatining o'lkada mustamlaka siyosatini amalga oshirishda agrar masalalarga bo'lgan munosabatlariga to'xtalib o'tilgan. Shu bilan birga maqolada mustamlaka davrida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligi xolati va uning ko'rsatgichlari turli manba hamda ilmiy adabiyotlar yordamida taxlilga tortilgan.

ОСОБЕННОСТИ АГРАРНОЙ ПОЛИТИКИ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ

У. А. Усаров

Доцент кафедры «Международные отношения и история»

Университет Альфраганус

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Российская империя, Средняя Азия, Туркестанский край, сельское хозяйство, аграрная политика, земля и вода, землевладение, оросительная система, местное население, хлопок, промышленное предприятие, метрополия, десятина, пуд.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности аграрной политики Российской империи в Туркестанском крае во второй половине XIX – начале XX вв., отношение царского правительства к аграрным вопросам при реализации колониальной политики в стране. В то же время в статье анализируется состояние сельского хозяйства Туркестанского края и его показатели в колониальный период с использованием различных источников и научной литературы.

KIRISH. Rossiya imperiyasi O‘rta Osiyo xonliklari hududlarini bosib olishi natijasida ko‘lga kiritgan hududlarida jadal mustamlakachilik siyosatining yurgizishiga uning XIX asr ikkinchi yarmidagi harbiy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli asosiy sabab bo‘ldi. Bu davrida Rossiya imperiyasining rivojlanayotgan yengil sanoati uchun birinchi navbatda paxta xomashyosi zarur edi. Chunki, 1861-1864-yillardagi Amerika qitasidagi fuqarolar urushi tufayli, u yerdan keladigan paxtaning kamayishi, O‘rta Osiyo xonliklari hududida yetishtiriladigan paxtaga bo‘lgan talabni yanada oshirib yuborgan bo‘lsa, keyingi navbatda, pilla, qorako‘lteri, jun va boshqa arzon mahsulotlarga ham talab kuchaydi. Bu esa, yengil sanoatning yirik vakillarini, uni arzon mahsulot bilan ta’minalash zarurati tufayli podsho hukumatini tez-tez bezovta qila boshladi. Masalan, Orenburg genaral-gubernatori A.A.Katenin tashqi ishlar vaziri yozgan xatida “O‘rta Osiyo mulkiga hukumronligimizni o‘rnatishimiz uchun albatta Turkiston va Toshkentni egallashimiz shart”[14, 6-7] deb ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, Toshkentni ko‘lga kiritish Buxoro mulkiga qurolli kuchlar bilan borish uchun ham zarur deb hisoblaydi. Natijada, imperiya harbiy qo‘sishlari zudlik bilan O‘rta Osiyo xonliklari hududini egallahga kirishadi.

TADQIQOT NATIJALARI. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyo hududidagi geosiyosiy maqsadlariga erishish uchun o‘zining mazkur mintaqadagi barcha manfaatlarini hisobga olgan xolda siyosatni amalga oshira boshladi. Xususan, Rossiya imperiyasining Turkistondagi yer-suv munosabatlarini o‘z ichiga qamrab olgan argar siyosatidan ko‘zlangan bosh maqsadi va asosiy yo‘nalishlari haqida Davlat mulklari

va ziroatchilik vaziri A.V.Krivoshein shunday: “Bu markaziy masalada uch ko‘rinish mavjud. Agar birinchisi – “paxta” bo‘lsa, ikkinchisi –“sug‘orish” va nihoyat, uchinchisi uncha ko‘zga tashlanib turmagan bo‘lsa ham, aslida hammasidan muhimi – “ruslarni ko‘chirib keltirib o‘rnashtirish turibdi” deb ta’kidlab o‘tgan[3, 111]. Demak, imperatorning vaziri markazning Turkiston o‘lkasidagi mustamlaka siyosatining asosiy yo‘nalishlarini muxtasar qilib aytganda, ya’ni, “paxta” – “sug‘orish” – “ruslarni ko‘chirib keltirish” kabi uch so‘zda ifodalaydi[12, 215].

Rossiya imperiyasi hukumatining ko‘rsatmalariga binoan mustamlakachilik boshqaruv idoralari Turkiston o‘lkasida amalga oshirgan yer-suv munosabatlaridagi o‘zgarishlar va umuman, agrar siyosati birinchi navbatda o‘lkani metropolianing paxta, pilla, boshqa qishloq xo‘jalik xomashyo bazasiga hamda rus aholining yangi yashash makoniga aylantirishga qaratilgan edi.

Rossiya imperiyasining XIX asr 60-80-yillardagi harbiy yurishlari natijasida, Turkiston o‘lkasi hududlari zo‘rlik yo‘li bilan joriy qilingan huquqiy, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimi o‘rnatildi. Bu munosabatlar mintaqada an‘anaviy qaror topgan yer-suv munosabatlarni va ularning milliy asosda rivojlanish imkoniyatlarini yo‘q qilib tashlashga harakat qilindi. Imperiya hukumati tomonidan maxsus ko‘chirtirilganlar, undan tashqari o‘zboshimchalik bilan Turkistonga kelganlarni yer bilan ta’minlashda tub aholiga tegishli yer mulklarni tortib olish holatlari butun o‘lka bo‘ylab kuzatilgan[2, 98-99]. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘lka aholisi nafaqat o‘zlarining unumdon yer mulklaridan, u yerlar hududida joylashgan suv manbalari va sug‘orish inshoatlaridan ham mahrum bo‘lib qolgan. Oqibatda, o‘lka mahalliy aholisining bir qismi o‘zlaridan tortib olib ko‘yilgan yerkarni o‘zlarini ijaraga olib, soliq to‘lab dehqonchilik qilgan bo‘lsa, qolgan qismi qo‘riq bo‘z yerkarni yangidan o‘zlashtirishga majbur bo‘lgan. Bu xol mahalliy axolining ijtimoiy ahvolini yanada og‘irlashtirgan.

Shuningdek, Turkiston o‘lkasida mustamlakachilik hukmronligini o‘rnatgan Rossiya imperiyasi mintaqqa qishloq xo‘jaligidagi mavjud muammolarni, ziddiyatlarni bartaraf qilishga emas, balki uning imkoniyatlarini, salohiyatini Rossianing kapitalistik rivojlanish yo‘liga o‘tgan yengil, oziq – ovqat va boshqa sanoat sohalarining paxta tolasi, ipak, teri, jun, meva va sabzovot mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish tomon yo‘naltirishga harakat qilgan. Bu borada tub aholining quyi tabaqa vakillarining yangi hokimiyat siyosatiga, yer-suv munosabatlarini o‘zgartirilishiga, o‘lkaga rus aholini ko‘chirishga, joriy etilajak soliq va to‘lov larga qarshiligini sindirish maqsadida mustamlaka boshqaruv idoralari mahalliy yirik yer egalarini, boy savdogorlarni, qozilarni va musulmon din peshvolarini o‘z tomoniga jalb eta boshladi. Ayni

shularning orasidan volost boshqaruvchilari, qozilar, qishloq oqsoqollari, ovul biylari, rus-tuzem maktablari o‘qituvchilari tayinlanar edi[4, 34].

Bu davrda Turkiston o‘lkasi aholisining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lib, o‘lkaning Farg‘ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarda dehqonchilik ancha rivoj topgan. Dehqonchilik qilinadigan yerlarining aksariyati sug‘oriladigan bo‘lgani sababli turli suv inshoatlarining qurilishi, ta’mirlanishi va ulardan foydalanish jamoat ishtirokida amalga oshirilgan. Lekin qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishida og‘ir qo‘l mehnati juda katta o‘rin tutgan, zamonaviy texnika, asbob-uskunalar deyarli yo‘q edi, chorikorlar, mardikorlarning yer egalari bilan munosabatlari hamma vaqt ham adolatli bo‘lgan deb bo‘lmaydi.

Turkiston o‘lkasidagi yer egaligi munosabatlari Rossiya sanoati ehtiyojlariga va ko‘chirib keltirilayotgan aholini imtiyozli joylashtirishga moslashtirildi. Birinchi navbatda, o‘lkadagi mahalliy yirik yer egalarining ijtimoiy va siyosiy mavqeini pasaytirish maqsadida hamda mustamlakachilik siyosati rejalarini amalga oshirishni ko‘zlab, o‘lkaning barcha yerlari mulkchilik huquqiy belgilari ozmi-ko‘pmi ifodalangan xolda mahalliy qonun-qoidalarga ko‘ra davlat mulkiga aylantirildi, ularga soliq solinib, podsho imperiyasi g‘aznasini boyitadigan bo‘ldi[11, 24]. Lekin, Turkiston generel-gubernatori K.P.Kaufman tashabbusi bilan o‘lkadagi “mulk” yer egaligi shakli , diniy idoralar va soliqlardan ozod bo‘lish huquqi e’tirof etilgan shaxslar ro‘yxati tuzib chiqish hamda tasdiqlash kirishildi. Mulkarning va vaqflarning egalari dehqonlardan olinadigan yig‘im o‘rniga, davlat tomonidan beriladigan nafaqa puli belgilash taklif etildi. Turkiston Generel-gubernatori K.P.Kaufmanning bundan ko‘zlagan asosiy maqsadi “mahalliy aholini eng xavfli bo‘lgan “vaqf” va “mulk” egalariga nafaqalar berrish orqali ularni rus imperiyasi ma’muriyatiga bevosita qaram qilib qo‘yish edi” [8, 247].

Zarafshon okrugi va Amudaryo bo‘limlaridagi “vaqf” yer egaligi nisbatan tartibga solindi, bu yerlarda istiqomat etgan dehqon aholisi umumiy o‘lpon qoidasiga bo‘ysundirildi, “mulk”lar esa, xech bo‘limganda, rasman amlok, ya’ni o‘lpon to‘lanadigan yerlarga tenglashtirildi[8, 257].

1880-yilda “Ijtimoiy o‘lpon va yer tuzilishi to‘g‘risida” to‘plam chiqarildi[11, 25]. Keyinroq, 1880-1890-yillarda, Rossiya imperiyasining mustamlakachi idoralari vaqf mulklarini “tartibga solish”, qayta ro‘yxatdan o‘tkazish bahonasi bilan butun Turkiston o‘lkasining turli hududlarida juda ko‘p vaqflarni noqonuniy deb topdi, shunday yerlar, imoratlar mustamlakachi hokimiyatning ixtiyoriga o‘tgan. Masalan, vaqfga oid hujjatlarning navbatdagi taftish ishlari 1886-yil 17-noyabrda qabul qilingan Turkiston o‘lkasidagi vaqf xo‘jaliklari mulklari va ularga tegishli hujjatlarni 1887-yil 1-iyulga qadar tekshirish va tartibga solish haqidagi qaror bilan bog‘liq[13]. Unga ko‘ra 1887-yil 1-iyuliga qadar vaqfga oid hujjatlarni tegishli hudud yer-soliq komissiyasiga topshirish, taqdim qilinmagan hujjatlar qabul qilinmasligi belgilangan. Masalani

o‘rgangan tadqiqotchilardan R.Nabihev arxiv materiallari va matbuotda e’lon qilingan maqolalar asosida 1887-yilda o‘lka ma’muriyatiga Samarqand, Sirdaryo va Farg‘ona viloyatlari bo‘yicha 7509 ta vaqf hujjati topshirilgani, shundan 10 % (737 ta) hukmdorlar yorlig‘i bilan tasdiqlangan, ya’ni imperiya ma’muriyati talab qilgan yuridik hujjatlarga ega degan xulosaga keladi[7, 10].

Tadqiqotchi O‘.Sultonovning fikricha ham, XIX asrning 80-90-yillarida vaqf mulklari ommaviy tarzda taftish qilish vaqtida vaqf xo‘jaliklarining butunlay tugatish va davlat foydasiga soliqqa tortish bilan yakunlandi. Umuman olganda, Turkiston o‘lkasining boshqa viloyatlarida ham vaqf xo‘jaliklariga berilgan mahalliy hukmdorlarning soliqlardan ozod qilish va imtiyozlar haqidagi yorliqlari turli bahonalar bilan inobatga olinmagan. Bunday vaziyatlarda vaqf xo‘jaliklarining imtiyozlarini bekor qilinib davlat foydasiga soliq belgilangan[10, 221].

XX asr boshida kelib ham, ya’ni “Turkiston o‘lkasida yer –o‘lpon tuzilishini joriy etish to‘g‘risidagi 1903-yilgi Qoidalar” va aholini ko‘chirish bo‘yicha 1906-yilgi siyosat va boshqalar natijasida yer munosabatlari va soliqqa tortishning butun tizimiga qo‘srimcha o‘zgarishlar kiritildi. Bu davrga kelib Rossiya imperiyasi hukumati mintaqadagi yer maydonlarini to‘liq chegaralab chiqdi. Aholiga uch toifadagi – sug‘oriladigan, lalmi, va ishlov berilmaydigan yerlar biriktirilib qo‘yildi[11, 25]. Ularga og‘ir soliqlar solindi. Mahalliy aholini yerkari zo‘ravonlik bilan tortib olish hisobiga Rossiyadan ko‘chib kelgan aholini yer bilan ta’minalash muammosi xal etildi. Rossiya ipmeriyasi sanoati uchun paxta xomashyosi strategik jihatdan muhim ekin ekanligi va paxta sohasida AQShdan mustaqil bo‘lish maqsadida o‘lkadagi barcha so‘g‘oriladigan yerlar paxta yetishtirish uchun qayta taqsimlandi.

Turkiston o‘lkasi qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan yerkari XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga kelib, asosan paxta ekilgan. Rosssiya imperiyasi hukumati tomonidan Turkiston o‘lkasida yerkari unumidorligi va suv manbalariga boyligini bilganligi sababli paxtaning mahalliy navi bilan birgalikda, amerika paxtasi navlarini yetishtiriladigan yer maydonlari yildan-yilga doimiy kengaytirilib borilgan. Masalan, birgina Farg‘ona viloyatida paxta maydonlarining kengayishi va paxta hosildorligining oshib borishini 1895-yili umumiyy hisobda 4.766.470 pud (1 pud – 16 kg.ga teng) amerika paxtasi, 687.422 pud mahalliy paxta yig‘ib olingan bo‘lsa, bu ko‘rsatgich 1896-yilga kelib, amerika paxtasi 6.018.615 pud, mahalliy paxta 590.123 pudni tashkil etgan[5, 97]. Shuningdek, 1888-yildan–1915-yilga qadar, salkam 20 yil mobaynida Farg‘ona viloyatida 34,7 ming desyatinaga yer maydonidan 336,5 ming desyatinaga yoki 950 foizga ko‘paygan[6, 194]. Bu ko‘rsatgichlar Turkiston o‘lkasining boshqa viloyatlariga nisbatan sezilarli darajada ko‘p bo‘lgan. Misol uchun o‘sha yillarda Sirdaryo viloyatida 25,8 desyatinadan 74 ming desyatinaga yoki qariyib 240 foizga, Samarqand viloyatida 8 ming desyatinadan 55,6 ming desyatinaga yoki 700 foizga ko‘paygan[9, 29].

XX asr boshiga kelib, ya’ni 1901-yilgi Farg‘ona viloyati Statistika Kommitetining hisobotida Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi Farg‘ona viloyatida avvalgi yillarga qaraganda paxta ekiladigan yer maydonlari 1899-yilda 50 ming desyatinaga, 1900-yilda 31 ming desyatinaga, 1901-yilda 26.280 desyatinaga kengayganligi aytib o‘tiladi. Shundan 1901-yilga kelib, 194.573 desyatina yer maydoniga paxtaning amerika navi ekilgan bo‘lsa, 155.62 desyatina yer maydoniga maxalliy paxta navi ekilgan. Yil yakuniga kelib esa, paxtaning amerika navidan 9.808.944 pud hosil olingan[1, 8]. Bu o‘zgarilar va tadbirlannig barchasi mustamlakachilik siyosatini belgilarini o‘zida aks ettirib, Turkiston o‘lkasini tobora metropoliyaga qaram qilib qo‘yish edi.

XULOSA. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasini Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan so‘ng, bu mintaqada o‘zining mustamlakachilik siyosati mustahkamlash maqsadida, avvalo o‘lkadagi yer egaligi va sug‘orish tizimini tartibga solishi zurur edi. Chunki, birinchidan o‘lkadagi yangi o‘rnatilgan mustamlaka boshqaruv tizimini yanada mustahkamlash bo‘lsa, ikkinchida Turkiston o‘lkasi iqtisodiyoti negizini qishloq xo‘jaligi tashkil etib, bu davrda rivojlanib borayotgan rus sanoati korxonalari uchun zarur bo‘lgan paxta, ipak, teri, jun va boshqa orzon qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlash edi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda Rossiya imperiyasi ma’muriyati to‘liq o‘z mafaatlaridan kelib chiqib, deyarli olti millionga yaqin Turkiston o‘lkasi aholisining manfaatlari umumman inobatga olmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Oqibatga o‘lka mahalliy aholisining ijtimoiy ahvoli og‘ir darajaga tushib qolgan va imperiya ma’muriyatiga qarshi norozilik harakatlar kuchayib ketgan.

ADABIYOTLAR

1. Ежегодникъ Ферганской области. Томъ. I. Вып. 1902. Изд. Феганского областного статистического комитета. – С. 8
2. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917гг). – Ташкент: 1997. –С. 98-99.
3. Кривошеин А. В. Записка главноуправляющего земледелием и землеустройством о поездке в Туркестан. СПб. 1912.– С. 111.
4. Курбонова Н. Н. Чоризмнинг Туркистондаги аграр сиёсати ва унга қарши кураш (Фарғона вилояти мисолида). т.ф.н. дис.. –Андижон. 2011. – Б. 34.
5. Мусаев Н.У. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг шаклланиши. – Тошкент.: IQTISOD-MOLIYA, 2008. – Б. 97.

6. Мусаев Н.У. Ўрта Осиёда дәхқончилик маданияти ва аграр муносабатлар тарихидан (Тош даври охирларидан – XX аср бошларига қадар). – Тошкент.: Фан, 2005. – Б. 194.
7. Набиев Р.Н. Вакфное хозяйство Кокандского ханства. – Т., 2010. – С. 10.
8. Проект всеподданейшего отчета генерал-губернатора К.П.Кауфмана по гражданскому управлению и устройству в областях Туркестанского генерал-губернаторства. 7 ноября 1867 - 25 марта 1881 гг. – СПб., 1885. –С. 247.
9. Социально-экономическое положение Узбекистана накамуне Октября.). – Тошкент.; Фан, 1973. – С. 29.
10. Султонов Ў.А. Тошкент вақф хўжалигида анъаналар, ислоҳотлар ва муаммолар (XVI–XX аср бошларига оид тарихий ҳужжатлар асосида). т.ф.д. дис.. – Тошкент: 2016. – Б. 221.
11. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. –Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 24.
12. Ўзбекистоннинг энг янги тарихи: Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Биринчи китоб. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 215.
13. ЎзМА. И-717-фонд, 1-рўйхат, 1-иш. 2-варақ.
14. Ҳасаний М. Туркистон босқини. – Тошкент. Нур, 1992. – Б. 6-7.